SHARQ MUTAFAKKIRLARINING SHAXS, UNI TARBIYALASH, O‘QITISH VA RIVOJLANTIRISH HAQIDAGI PEDAGAOGIK G‘OYALARI

Tojiboyeva Hilolaxon Maxmutovna
Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti direktorining ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha o‘rinbosari, pedagogika fanlari doktori (DSs), professor

Annotatsiya. Mazkur maqolada Najmiddin Kubro va Husayn Voiz Koshifiyning ma’naviy-axloqiy va pedagogik qarashlari, ularning yosh avlod tarbiyasidagi ahamiyati tahlil qilingan. Mutafakkirlarning axloqiy poklik, rostgo‘ylik, insonparvarlik, mehnatsevarlik, saxiylik, vijdonlilik, mardlik va bag‘rikenglik kabi fazilatlarni shakllantirishga oid qarashlari yoritilgan. Shuningdek, ularning boy ma’naviy merosidan foydalanish o‘smir-yoshlarda “ommaviy madaniyat”ning salbiy ta’sirlariga qarshi ma’naviy immunitetni shakllantirish, milliy o‘zlikni anglash va madaniy ongni rivojlantirishning muhim pedagogik vositasi sifatida asoslangan.

Kalit so‘zlar: Najmiddin Kubro, Husayn Voiz Koshifiy, ma’naviy-axloqiy tarbiya, o‘smirlar, pedagogik qarashlar, axloqiy fazilatlar, milliy o‘zlik, madaniy ong, “ommaviy madaniyat”, ma’naviy immunitet.

Аннотация. В статье анализируются духовно-нравственные и педагогические взгляды Наджмиддина Кубро и Хусейна Ваиза Кашифи, а также их значение в воспитании подрастающего поколения. Раскрываются взгляды мыслителей на формирование таких нравственных качеств, как нравственная чистота, честность, гуманность, трудолюбие, щедрость, совестливость, мужество и толерантность. Обосновывается значение богатого духовного наследия мыслителей как важного педагогического средства формирования у подростков духовного иммунитета к негативному влиянию «массовой культуры», развития национального самосознания и культурного сознания.

Ключевые слова: Наджмиддин Кубро, Хусейн Ваиз Кашифи, духовно-нравственное воспитание, подростки, педагогические взгляды, нравственные качества, национальное самосознание, культурное сознание, «массовая культура», духовный иммунитет.

Abstract. The article analyzes the spiritual, moral, and pedagogical views of Najmuddin Kubro and Husayn Waiz Kashifi and their significance in the education of the younger generation. The thinkers’ views on developing such moral qualities as moral purity, honesty, humanism, diligence, generosity, conscientiousness, courage, and toler-

ance are highlighted. The article substantiates the importance of the thinkers' rich spiritual heritage as an important pedagogical means of developing adolescents' spiritual immunity against the negative influence of "mass culture", strengthening national self-awareness, and developing cultural consciousness.

Keywords: Najmuddin Kubro, Husayn Waiz Kashifi, spiritual and moral education, adolescents, pedagogical views, moral qualities, national self-awareness, cultural consciousness, "mass culture", spiritual immunity.

Yoshlarning shakllanishi va ma'naviy kamoloti barcha davrlarda ham dolzarb masala hisoblangan. Shuning uchun ham ajdodlarimiz farzandlarning kamol topishi, bilim egallashi va yuksak ma'naviyatli bo'lishiga erishish maqsadida o'zlarining qimmatli qarashlari va fikrlarini bayon qilganlar. Ularning turli soxta ta'limotlarga berilishiga yo'l qo'ymaslikka harakat qilganlar. Jumladan, yirik alloma va vatanparvar Najmiddin Kubro pedagogik fikr taraqqiyotiga katta hissa qo'shgan. Uning maqsadi odamlarni jismoniy, aqliy, ruhiy va ma'naviy jihatdan yetuk shaxs sifatida tarbiyalashdan iborat bo'lgan. U tariqat va saxovatlilikni o'zaro uyg'unlashtirgan, axloqiy poklik, mardlik, hojatbarorlik g'oyalarini targ'ib etgan. Ilohni sevish bilan yaxshi insonlarni sevishni birga olib qaragan, nafsni qattiq qoralagan.

Bilish nazariyasida aqliy va hissiy-intuitiv bilishni birlashtirgan, tasavvufda hushyorlik (sahv) maslagini tanlab, behud-devonalikni inkor etgan. U insonni kichik olam deb, uning kamoloti cheksiz ekanini ta'kidlagan. Najmiddin Kubro ta'limotini har tomonlama tahlil qilish va uning O'rta Osiyo ma'naviy-pedagogik fikri taraqqiyotidagi ahamiyatini ko'rsatish uchun ilgari surgan g'oyalarni bugungi davr nuqtayi nazaridan yondashgan holda o'rganib, turli tadbirlar yordamida o'quvchi-yoshlar ongiga yetkazish lozim. Chunki Najmiddin Kubro qarashlarini o'rganish va bilish o'quvchi-yoshlarning milliy o'zligini anglashi uchun katta ahamiyatga ega.

U o'zining axloqiy qarashlarini "Favoyih al-jamol va favotih al-jalol" ("Jamol xushbo'yliklari va jalolning kashfi"), "Al-usul al-ashara" ("O'nta usul"), "Fi odobus solikin" ("Solihlar odobida") nomli kitoblarida bayon qilgan bo'lib, pedagoglar ushbu asarlar bilan yaqindan tanishishlari lozim. Najmiddin Kubro o'z asarlarida tafakkurga asoslangan aqliy bilimni rivojlantirishga e'tibor qaratish lozimligini ta'kidlagan. Alloma inson ruhiy kechinmalari, nozik holatlarini puxta bilgan. Shu asosda «latoif» ("nozik ta'blilik") nazariyasini ishlab chiqqan. Bu nazariyaga ko'ra, inson ruhi ko'zga ko'rinmas latif markazlardan iborat. Bu ong va tuyg'u, ruh va jism orasidagi holatdir. Uni ilg'ab olish mushkul. Ammo

inson hayoti va kundalik faoliyatida ushbu qarashlar muhim ahamiyatga ega.

Najmiddin Kubro irfoniy hikmat, insoniy poklik va ilohiy ma'rifat g'oyalarini butun Sharqqa tarqatgan mutafakkir sifatida faoliyat ko'rsatgan bo'lib, uning qarashlari bugungi kunda o'smirlarda "ommaviy madaniyat"ga qarshi immunitetni shakllantirishda alohida o'rin tutadi.

O'z g'oyalari bilan barkamol shaxs tarbiyasi borasida alohida o'rin egallagan mutafakkirlardan biri Husayn Voiz Koshifiydir. Husayn Voiz Koshifiy "Axloqi muhsiniy", "Axloqi Karim", "Suhayliy", "Javohirnoma", "Risola dar ilmi e'dod" ("Sonlar haqida risola"), "Ravzat ush shuhado" ("Shahidlik bog'i"), "Oynai Iskandariy", "Tafsiri Husayniy", "Risolati Hotamiy yoki Kitobi Hotamnoma" ("Hotamtoy haqida risola"), "Sahifai shoda", "Badoe al-afkor fi sannoe al-ash'or" kabi asarlarida axloqiy tarbiyaning nazariy asoslarini yoritgan. Uning ta'kidlashicha, odob qalbni yomon so'zlar va nojo'ya xulqdan saqlay olish, o'zini va o'zgalarni hurmat qila bilishdir. Koshifiy tarbiyada ota-onalar va pedagoglarning tarbiya sohasidagi vazifalarini belgilab bergan. O'smir yoshidagi o'quvchilarda "ommaviy madaniyat"ga qarshi immunitetni shakllantirishda Koshifiyning qarashlaridan foydalanish ijobiy samara beradi.

Bu borada "Axloqi muhsiniy" asari pedagogik ahamiyatga ega. Asarda, asosan, yoshlarning ta'lim-tarbiyasi haqida fikr yuritilgan. Ta'lim-tarbiya insonda yuksak axloqiy fazilatlarni shakllantirish omili ekanligini mutafakkir alohida ta'kidlaydi.

"Burchni bajarmoqlik - bu insonning oliyjanobligidan va yuksak darajada bilimdonligidan dalolat beradi", - deyish bilan Koshifiy insoniy burchni, bilimdonlikni ulug'laydi. Bilimdon inson o'z burchini tushunadi, bu uning oliyjanobligini namoyon qiladi. Koshifiyning bu fikrlari bugungi kun uchun ham pedagogik qimmatga ega.

"Odob - bu qalbini yomon so'zlardan va nojo'ya xulqdan saqlay olish, o'zini va o'zgalarni ham hurmat qila bilish, shu bilan birga, o'zini va o'zgalar obro'sini tushirmaslikdir". "Yolg'onchilik seni jarlikka yetaklaydi, rostgo'ylik esa baxtsizlikdan saqlaydi", - deydi Koshifiy. U ijobiy fazilatlarni maqtab, ularni insonlar uchun zarur, deb hisoblaydi. Inson yolg'onchilik, xasislik, adolatsizlik, vijdonsizlik kabi xislatlardan xoli bo'lishi kerak, deb nasihat qiladi Koshifiy. "Insonning axloqsizligi uning o'zigagina emas, balki o'zgalarga ham salbiy ta'sir qiladi"; "Odob - oltindan qimmat"; "Vijdoni, nomusi, diyonati bo'lmagan kishi dunyoda bo'lgan hamma yomonlikni qilishga tayyordir", - deydi Koshifiy. Koshifiy yoshlarda sofdillik, rostgo'ylik, saxiylik, vijdonlilik, irodalilik, qat'iyatlilik kabi fazilatlarni shakllantirish zarur, deb hisoblaydi. U xa-

sis, tamagir, ochko‘z, dilozor, pastkash, tuhmatchi, sotqin, yolg‘onchi, laqma kishilarni axloqsiz kishilar sirasiga kiritadi.

Voiz Koshifiy o‘z qarashlarida inson ma’naviyatining bir qator ma- salalariga e’tibor qaratgan. U, birinchi navbatda, insonda oliyjanoblik xususiyati bo‘lishi zarurligi haqida to‘xtalgan. Oqko‘ngillilik va bag‘rikeng- likni ham odob me’yori, deb hisoblaydi. “Sofdillik, sabrlilik, rostgo‘ylik, saxiylik, mehnatsevarlik insonning barkamolligi va o‘zini anglashidan dalolat beradi. Sofdillik, rostgo‘ylik va muruvvatlilik bexatarlik va ishonch garovidir”, deb uqtiradi Koshifiy. Bu fikri bilan u yoshlarni qora ko‘ngil, yolg‘onchi, tamagir, pastkash, nokas, gap tashuvchi, laqma bo‘lmaslikka, mard, olijanob va saxiy bo‘lishga chaqiradi.

Bundan tashqari, Voiz Koshifiy, ayniqsa, insondagi rostgo‘ylik va mehnatsevarlik xislatlariga keng to‘xtaladi. Mutafakkirning ta’kidlashicha, insoniylikni belgilaydigan eng asosiy jihatlardan biri - bu rostgo‘ylikdir. Koshifiy axloqning bu jihatiga alohida e’tibor qaratganligining sababi shundaki, u yashagan davrda yolg‘onchilik, bir-birini aldash, ota-bolaning, aka-ukaning bir-biriga qarshi kurash olib borishi kabi salbiy jihatlar keng yoyilgan edi. Koshifiy xalqqa baxtsizlik, davlatga zarar keltiruvchi yolg‘onchi, ishyoqmas, xasis, sotqin kishilarni yetti guruhga ajratadi.

“Axloqi muhsiniy” asarining mazmunini belgilovchi yana bir axloqiy xususiyat - bu insonparvarlikdir. Koshifiy insonni hurmatlash, e’zozlash, g‘amxo‘rlik qilish faqat yaqinlik yoki qarindoshlik uchungina emas, balki bu eng muhim odamiylikdir, deb hisoblaydi. Shuningdek, uning do‘stlik haqidagi mulohazalari ham juda ibratlidir. “Inson do‘stlari biror narsaga muhtoj bo‘lib qolsalar, ularga yordam qo‘lini uzatishi, hech narsasini do‘stlaridan ayamasligi kerak”. Koshifiyning mazkur fikrlari “ommaviy madaniyat”ning salbiy oqibatlari keng tus olgan bugungi kun uchun ham ahamiyatlidir. Chunki “ommaviy madaniyat” ta’sirida xudbin, manfaatparast, yolg‘onchi, ota-onasi va do‘stlarini hurmat qilmaydigan shaxslarning paydo bo‘lish ehtimoli kuchaymoqda. Bunday illatlarga barham berish uchun buyuk ajdodlarimizning ta’limotlariga tayanish lozim. Uning bunga o‘xshash ko‘plab fikrlari barcha davrlar uchun ham qadrlidir. Chunki inson obyektiv olamdagi eng buyuk mavjudotdir. Uni e’zozlash, bir-biri bilan hamkorlik qilish, boshqacha aytganda, jamoaviylik va xalqlar do‘stligi tuyg‘usi “ommaviy madaniyat” keng avj olgan ayni kunlarda har bir kishining axloqiy me’yori va burchiga aylanishi kerak. Voiz Koshifiyning insoniy burch, ota-ona qadri haqidagi fikrlari ham salmoqli bo‘lib, bugungi kunda o‘smirlarning madaniy ongini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega.

Aqidaparastlik, fundamentalizm, diniy fanatizm, millatchilik kabi

bir qator salbiy holatlar butun dunyodagi yoshlar xatti-harakatida yaqqol namoyon bo‘lmoqda. Bugungi kunda axloqsizlikni madaniyat deb bilish oddiy holga aylanmoqda. O‘zbek xalqining asl ma’naviy qadriyatlarini mensimaslik, ularni eskilik sarqiti sifatida baholash inson hayoti, oila muqaddasligi va yosh avlod tarbiyasiga katta xavf solmoqda. Shuning uchun ham “ommaviy madaniyat”ning mazmun-mohiyatini ochib berish, pedagoglar va ota-onalarni uning asl mohiyati hamda zararli oqibatlaridan xabardor qilish zaruriyati kuchaymoqda. Biz bugun ajdodlarimiz merosiga tayangan holda ma’naviy tarbiyaga alohida e’tibor qaratishimiz lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ma’naviyat yulduzlari: Markaziy Osiyolik mashhur siymolar, allomalar, adiblar. — Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1999.

2. Pedagogika: oliy ta’lim muassasalari uchun darslik / M. Toxtaxodjayeva va boshq. — Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2010.

3. Milliy istiqlol g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. — Toshkent: O‘zbekiston, 2001.

4. O‘zbekiston Respublikasi. Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasi. — Toshkent, 2019